TILSHUNOSLIK

Xoshimova Oydina Shuxrat qizi (Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti; oydinakhoshimova@gmail.com)

KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA LINGVORANGLI OLAM TUSHUNCHASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada lingvorangli olam tushunchasi kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Ranglar va ularni ifodalovchi leksik birliklar inson tafakkurida shakllanadigan konseptlar sifatida o'rganilib, ularning lingvokulturologik talqini ochib berildi. Tadqiqotda konseptual tahlil va qiyosiy usul qo'llanilgan. Natijalar lingvorangli olam konseptining kognitiv jarayonlar va lisoniy manzara bilan aloqasini ochib beradi*

Kalit so'zlar: *kognitiv tilshunoslik, lingvorangli olam, rang konseptlari, lingvokulturologiya, konseptual tahlil, tafakkur va til.*

Хошимова Ойдина Шухрат кизи (базовый докторант Наманганского государственного университета; oydinakhoshimova@gmail.com)

ПОНЯТИЕ ЛИНГВОЦВЕТОВОГО МИРА В КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. *В данной статье понятие лингвокультурного мира цветов анализируется с точки зрения когнитивной лингвистики. Цвета изучаются как концепты, формирующиеся в сознании человека, и раскрывается их лингвокультурная интерпретация. В исследовании применены методы концептуального анализа и сравнительного подхода. Результаты раскрывают связь концепта лингвокультурного мира цветов с когнитивными процессами и языковой картиной мира.*

Ключевые слова*: когнитивная лингвистика, лингвокультурный мир, цветовые концепты, лингвокультурология, концептуальный анализ, мышление и язык.*

Khoshimova Oydina Shukhrat qizi (Basic doctoral student of Namangan State University; oydinakhoshimova@gmail.com)

THE CONCEPT OF LINGUOCOLOR WORLD IN COGNITIVE LINGIUSTICS

Annotation. *This article analyzes the concept of the linguistic color world from the perspective of cognitive linguistics. Colors are studied as concepts formed in human cognition, revealing their linguocultural interpretation. The study employs conceptual analysis and comparative methods. The results reveal the connection between the concept of the linguistic color world, cognitive processes, and the linguistic picture of the world.*

Keywords: *cognitive linguistics, linguistic color world, color concepts, linguoculturology, concept-ttual analysis, cognition and language.*

Kirish. Ma'lumki, kognitiv tilshunoslik XX asrning oxirgi choragida shakllanib, XXI asr boshlariga kelib lingvistikaning yetakchi yo'nalishlaridan biriga aylandi. Uning rivojlanishiga J.Miller, J.Bruner, J. Lakoff, R.Langaker, R.Jakendoff kabi amerikalik olimlarning ilmiy izlanishlari katta hissa qo'shdi. "Til tizimini va nutqiy faoliyat mahsuli bo'lgan matn qurilishini shu paytgacha filologik nuqtayi nazardan tahlil qilib kelayotgan bu fan doirasi endilikda idrok etish, bilish, tushunish, tahlil qilish faoliyatlariga oid tushuncha va kategoriyalar bilan kengaydi. Natijada tilshunoslikning mantiq, psixologiya, bilish nazariyasi kabi kognitiv fan sohalari bilan hamkorlikka ehtiyoji yanada kuchaydi. Bu hamkorlik, bir tomondan, tilshunoslikni inson tafakkur faoliyati muammolari bilan shug'ullanuvchi kognitologiya fani tarmog'iga kiritgan bo'lsa, ikkinchidan, tilshunoslikning o'zini yana bir soha kognitiv tilshunoslik sohasi bilan boyitdi" [1;7-b.].

Kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchasi axborot tushunchasi va uning inson ongida qayta ishlanishi, bilimlar tizimi va ularning inson tafakkurida hamda til shakllarida namoyon bo'lishidir. Kognitiv tilshunoslik kognitiv psixologiya va kognitiv sotsiologiya bilan birgalikda kognitologiyani hosil qiladi. Bu fanlar inson tafakkuri qanday tuzilgan, inson olamni qanday tasavvur qiladi, olam haqidagi qanday ma'lumotlar bilimga aylanadi, ruhiy olam qanday yaratiladi kabi savollarga javob qidiradi [2;11-b.]. "Kognitiv" atamasi ingliz tilidagi "cognitive" (bilishga oid) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u "cognize" (bilmoq, anglamoq, tushunmoq), "cognition" (bilish jarayoni), "cognitive processes" (bilish jarayonlari), "cognitive abilities" (kognitiv qobiliyatlar), "cognitive development" (kognitiv rivojlanish) kabi iboralar bilan uzviy bog'liq. Shu bilan birga, "cognitive science" (kognitiv fanlar) ham bilish jarayonlarini tadqiq qiluvchi fan sohasi sifatida ushbu atama bilan bevosita bog'liq.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kognitiv tilshunoslik doirasida lisoniy manzara tushunchasi inson tafakkuri va bilimlarini shakllantirishda tilning asosiy omil ekanligini ko'rsatadi. Tilshunoslikda liso-

niy manzaraning muammosi leksikaning o‘rganilishi bilan bog‘liq ravishda ishlab chiqila boshlandi (Y.N. Karaulov ishlarida). Ushbu masala bilan G.A.Brutyan, S.A.Vasilyev, G.V.Kolshanskiy, N.I.Sukalenko, E.S.Yakovleva, M.Blek, D.Xayms shug‘ullangan. 1988-yilda “Роль человеческого фактора в языкею. Язык и картина мира” [3] nomli kollektiv monografiya B.A.Serebrennikov tahriri ostida nashr etilgan. Hozirgi vaqtda lisoniy manzarasi masalasi Y.D.Apresyan, V.V.Morkovkin, Y.S.Stepanov, N.F.Alefirenko kabi olimlarning ilmiy ishlarida ko‘rib chiqilgan.

Shuningdek, kognitiv tilshunoslik lingvorangli olam inson tomonidan qabul qilingan rang tasniflari va ularning til tizimidagi ifodalanishi orqali milliy madaniy xususiyatlarni aks ettiradi. A.Vejbitskaya va V.N.Teliya tadqiqotlarida rang atamalari semantikasi va ularning madaniy konnotatsiyalari keng yoritilgan. Shu jihatdan lingvorangli olam kognitiv tilshunoslikning muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, lisoniy manzarani ranglar orqali idrok qilish, lingvokulturologik jihatdan o‘rganish va mazmun jihatidan tahlil qilish imkonini beradi.

O‘zbek tilshunosligida esa olim Sh.Safarovning 2006-yilda nashr qilingan “Kognitiv tilshunoslik” nomli monografiyasi o‘zbek tilshunosligida kognitiv yondashuvning nazariy asoslarini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Ushbu monografiyaning asosiy yondashuvlaridan biri til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni milliy tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinishidir. Kognitiv yondashuvni o‘zbek tiliga moslashtirib, lingvokognitiv tadqiqotlar uchun nazariy asos yaratgan. Sh.Safarov “voqelikni aks ettirish to‘g‘ridan to‘g‘ri tilning vazifasiga kirmaydi, bu vazifani dastlabki o‘rinda tafakkur bajaradi. Lekin tafakkurda yuzaga kelgan mental tuzilmalar til tizimida o‘z ifodasini topadi” [1;21-b.], deb ta’kidlaydi. Shu bilan birga, tilning asosiy vazifalaridan biri inson ongida shakllangan tasavvurlarni ifodalash va uzatishdir. Shu bois tilni o‘rganish jarayonida lingvistik birliklarning nafaqat strukturaviy, balki ma’no yaratishdagi kognitiv xususiyatlarini ham tahlil qilish zarurligini qayd etgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy mavzuni yoritishda o‘zbek va ingliz tillarida rang ifodalovchi leksik birliklarning kognitiv jarayonidagi ishtirokini ochib konseptual hamda qiyosiy-lingvistik tahlil usullaridan foydalanildi. Konseptual tahlil yordamida rang konseptlarining inson tafakkurida shakllanishi hamda ularning semantik jihatdan namoyon bo‘lishi o‘rganildi. Qiyosiy-lingvistik tahlil orqali turli tillarda lingvorangli olamning ifodalanishi solishtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Shu bilan birga, kognitiv tilshunoslik billan lingvorangli olam manzarasinining aloqasini ochib berildi

Tahlil va natijalar. XXI asr boshlariga kelib, olamning lisoniy manzarasini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarda insonning kognitiv faoliyati natijasida olingan obyektiv olam va u haqidagi g‘oyalarni aks ettiruvchi tadqiqotlar tobora ko‘paya boshladi. Bu esa, o‘z-o‘zidan, til hodisalarini tasvirlashda antropotsentrizmni namoyon qiladi. Inson ongi mantiqiy tafakkur orqali hosil qilingan bo‘lishiga qaramay, u o‘zida voqelikning hissiy, irodaviy va estetik aks etishini ham qamrab oladi [4;16-b.].

Zamonaviy fanlarda esa “olam manzarasi” dunyoning global qiyofasi sifatida ta’riflanadi. “Olam lisoniy manzarasi”ning asosiy xususiyati shundan iboratki, u o‘zida “til tashuvchisi”ning olamni tushunishini ifodalaydi. Til va “olam manzarasi” o‘zaro shunday bog‘liqki, unda, birinchi navbatda, dunyo haqidagi bilimlarning yaxlit tizimi, lisoniy shaxslarning barcha kognitiv faoliyati, kognitiv faoliyatning natijasi bo‘lgan dunyoqarashi olamni bir butunlik sifatida his qilishi, inson tafakkurida aks etishi sifatida dalillanadi. Ikkinchidan, insonlar olam haqidagi yangi bilimlarni izohlash usullari va mexanizmlarini til orqali rivojlantiradi. Shuning uchun ham “olamning lisoniy manzarasi” inson bilimlarni o‘rganuvchi kognitiv kategoriya maqomini oldi [4;20-b.].

Turli ma’lumotlar inson tafakkurida kognitiv jarayonlar asosida shakllanadi va til vositasida ifodalanadi. Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan olganda, har qanday axborot so‘z, so‘z birikmalari, rang tushunchalari va matnlar orqali inson ongida qayta ishlanadi va muloqot jarayonida uzatiladi. Ranglar nafaqat vizual idrok obyekti, balki ma’lum kognitiv va madaniy kontekstga ega bo‘lgan semantik birlik sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu bois lingvorangli olam kognitiv tilshunoslik doirasida muhim tadqiqot obyekti sifatida qaraladi.

Professor A.Mamatov ta’kidlashicha: “Kognitiv fan kognitsiya bilan shug'ullansa, kognitiv tilshunoslik kognitsiyaning, ya’ni bilishning tilda aks etishini, verballashuvini tadqiq qiladi. Tilga bo‘lgan kognitiv yondashuv bu til shaklining oxir-oqibat inson ongi, fikri, bilish strukturalarining aks ettirilishidir. Kognitivlik o‘z tuzilishiga ko‘ra, insonning bilish faoliyatiga tayangan barcha tipdagi bilimlarning tizimlashishini ifodalaydi [5].

L.R.Gataullina ta’rifiga ko‘ra: “Rang – bu kognitsiyaning muhim kategoriyasi va etnos tomonidan to‘plangan madaniy axborotning sermazmun tashuvchisi, rang ifodalovchi birliklar esa “semiotik kondensatorlar” bo‘lib, ular madaniyat xotirasi mexanizmi vazifasini bajaradi” [6;5-b.].

Lingvorangli olam tushunchasi kognitiv tilshunoslik doirasida tahlil qilinadigan muhim konseptlardan biri bo‘lib, u inson tafakkuridagi rang tushunchalarining umumiy tizimini ifodalaydi. Shu bilan birga, mazkur tushuncha kognitiv konseptlar tizimining bir qismi bo‘lib, u ranglarning inson ongida qay tarzda idrok qilinishi va mazmun jihatidan shakllanishini o‘rganadi. Bu tushuncha konseptosfera doirasida ranglarning kognitiv-semantik maydonini, ularning metaforik talqini va madaniy o‘ziga xosligini aks ettiradi.

Tilshunos J.Zeimbekis tadqiqotida keltirilganidek, bananlarning sariq rangda ekanligi haqidagi odatdagi tasavvurlar, hatto uning qora-oq tasvirida ham, odamlar tomonidan sariq rangda idrok qilinishi mumkin. Bu odamlarning ranglar haqidagi oldingi bilimlari va tasavvurlari orqali rangni kognitiv tarzda anglashini ko‘rsatadi. Tadqiqotda, agar ishtirokchi barcha bananlar sariq rangda ekaniga ishonsa, hatto uning qora-oq tasvirini ham sariq rangda idrok qiladi [7]. Bundan tashqari, shunday misollarga o‘xshash ranglar haqidagi tasavvurlarni kognitiv jarayonlar orqali ko‘rishimiz mumkin.

▪*Olma qizil rangda deb o‘ylash.* Agar ishtirokchilar olmalarning aksariyatini qizil rangda tasavvur qilishsa, unda qora-oq rangli olma tasviri ham ularga qizg‘ish soyadek ko‘rinishi mumkin. Bu holat miyaning odatiy rang va shakl assotsiatsiyalariga bog‘liq.

▪*O‘rmon yashil bo‘ladi deb idrok qilish.* Yashil rang bilan bog‘liq tajriba sababli, hatto qora-oq o‘rmon tasvirlari ham inson ongida yashil soyaning borligini uyg‘otishi mumkin.

▪*Quyoshni sariq rangda tasavvur qilish.* Insonlar ko‘pincha quyoshni sariq yoki oltin rangda tasavvur qilishadi. Natijada quyoshning qora-oq tasviri ham ularda sariq rangni eslatishi mumkin.

▪*Moviy osmonni idrok qilish.* Osmon doim moviy bo‘ladi degan tasavvur sabab, hatto qora-oq rangli osmon tasvirlari ham ongda moviy rang uyg‘otadi.

Mazkur misollar kognitiv va psixologik tadqiqotlar uchun muhim bo‘lib, ranglar idroki bilan bog‘liq stereotiplarni o‘rganishga yordam beradi. Shuningdek, lingvorangli olam manzarasining kognitiv obyekt sifatida tahlil qilinishi ranglarning nafaqat fiziologik, balki madaniy va tilshunoslik jihatlarini ham o‘z ichiga oladi. Bu jarayonlar odamlar o‘rtasida ranglar haqidagi umumiy tasavvurlarni shakllantiradi, ular esa, o‘z navbatida, til va madaniyatni aks ettiradi.

Har bir madaniyatda rang konseptlari alohida semantik maydonga ega bo‘lib ushbu makonda o‘ziga xos joy egallaydi va ular konseptlar tizimida shakllanadi. Ranglar turli tillarda turlicha konseptual yuklamaga ega. Misol uchun, o‘zbek tilidagi “yashil” konsepti tinchlik va tabiat bilan bog‘liq bo‘lsa, ingliz tilida “green” ekologiya, yashillik va ba’zan tajribasizlik (inglizcha: “greenhorn”) ma’nolarini ham anglatadi. Bu lingvomadaniy xususiyatlar kognitiv tahlil asosida chuqur o‘rganiladi.

Ranglarning til tizimidagi o‘rni har bir xalqning madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbek tilida rang ifodalari ko‘plab maqol va iboralarda uchraydi, og‘zaki so‘zlashuv nutqidan misol keltirsak: *Qizil til* – ortiqcha gapiradigan yoki beparvo odam haqida aytiladi. *Sariq chaqa* iborasi – juda arzimas, qadrsiz yoki juda kam miqdordagi pul ma’nosida ishlatiladi (O‘TIL.3;450-b.). Bu ibora, ko‘pincha, insonning biror narsani arzimas deb hisoblashi yoki pulning juda kam qiymatga ega ekanligini ta’kidlash uchun qo‘llaniladi. *–Mana, hotinim yotib qoldi.... kissamda sariq chaqa yo‘qki, bechoraning og’ziga yoqar ovqat bersam* (Oybek. “Tanlangan asarlar”). Ingliz tilida ham ranglarga asoslangan iboralar keng qo‘llaniladi, masalan: *once in a blue moon*– juda kam uchraydigan holatni; *red-handed* – jinoyat ustida ushlanishni; *red alert* – xavf; *red tape* – byurokratiyani ifodalaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, lingvorangli olam bu nafaqat rang nomlarining lug‘aviy va semantik tadqiqi, balki ularning kognitiv, konseptual va madaniy aspektlarini ham o‘rganish imkonini beradigan muhim lingvistik hodisadir. Bu tushunchani konseptosfera doirasida kognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilish ranglarning inson ongidagi konseptual xaritasini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах, “Сангзор”, 2006, 92-бет.

(2). Qo‘ziyev U. Lingvomadaniyatshunoslik. Namangan, 2021, 120-bet.

(3). Серебренников Б.А., Кубрякова Е.С., Постовалова В.И. и др. Роль человеческого фактора в языке: язык и картина мира. Отв. ред. Б.А.Серебренников; АН СССР, Институт языкознания. Москва, “Наука”, 1988.

(4). Buzrukova D. Olamning hissiy-lisoniy manzarasida “muhabbat” konseptining lingvokulturologik va gender tahlili. Filologiya fan d-ri (PhD) … dis., Farg‘ona, 2023, 133-bet.

(5). Mamatov A.E. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? Tilshunoslikning dolzarb masalalari. Prof. A.Nurmonov tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari, Andijon, 2012, 212–219-betlar.

(6). Гатауллина Л.Р. Лингвоцветовая картина мира: аспекты изучения. Семантические категории в разных лингвистических парадигмах. Сб. науч. ст., Уфа, 2005, с. 43–53.

(7). Zeimbekis J. Color and Cognitive Penetrability, Philosophical Studies, 2013, vol. 165, № 1, p. 167–175.

Jomardova Dilafruz Qahramonovna (Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat Tibbiyot instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi assistenti; dilafruz_jomardova@bsmi.uz)

APELLYATIV LEKSIK BIRLIKLARINING NANOTIBBIYOTDA FAOLLASHUVI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tibbiyot sohasining nanotibbiyot yo'nalishida aks etgan o'zbek va rus tillarida faollashgan apellyativ birliklar o'ganiladi. Nanotibbiyot sohasi taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan olimlar nuqtayi nazari iqtibos qilinib, tahlil va umumiy xulosalar keltirilgan. Nanotibbiyotning jadal suratlarda dunyo miqyosida rivojlanishi, sohaga tegishli yangiliklar yaratilib, ularning qo'llanilishi, yangi apellyativ leksik birliklar shakillanishi va faollashuviga olib kelishi dalillangan.*

Kalit so'zlar*: nanotibbiyot, apellyativ leksika, matn, nanotexnologiya, an'anaviy va molekular tibbiyot, nanotibbiyot atamalari.*

Джомардова Дилафруз Кахрамоновна (Бухарский государственный медицинский институт им.Абу Али ибн Сино, ассистент кафедры «Общественные науки»; dilafruz_jomardova@bsmi.uz)

АКТИВНОСТЬ АПЕЛЛЯТИВНОЙ ЛЕКСИЧЕСКОЙ ЕДИНИЦЫ В СФЕРЕ НАНОМЕДИЦИНЫ

Аннотация. *В данной статье изучаются апеллятивные единицы, активизирующиеся в содержании текстов, созданных на узбекском и русском языках, которые отражают наномедицинское направление медицинской сферы. Приводятся точки зрения ученых, внесших вклад в развитие области наномедицины, а также представлен анализ и общие выводы. Доказано, бурное развитие наномедицины в мировом масштабе, создание инноваций в этой области, их использование в медицинской рекламе, а также формирование и активизация новых номинационных лексических единиц.*

Ключевые слова: *наномедицина, апеллятивная лексика, текст, нанотехнологии, традиционная и молекулярная медицина, термины наномедицины.*

Jomardova Dilafruz Qahramonovna (Abu Ali ibn Sino Bukhara State Medical Institute Assistant of the Department of "Social Sciences"; dilafruz_jomardova@bsmi.uz)

ACTIVITY OF APPELLATIVE LEXICAL UNIT IN THE SPHERE OF NANOMEDICINE

Annotation. *This article studies the appellation units activated in the content of texts created in the Uzbek and Russian languages, reflecting the nanomedicine direction of the medical field. The point of view of scientists who have contributed to the development of the field of nanomedicine is cited, analysis and general conclusions are presented. It is argued that the rapid development of nanomedicine in the world, the creation of innovations related to the field, their use in medical advertising, lead to the formation and activation of new appellation lexical units.*

Keywords: *nanomedicine, appellative lexicon, text, nanotechnology, traditional and molecular medicine, nanomedicine terms.*

Kirish. Har bir fanda rivojlanish jarayonlari kuzatiladi desak, adashmagan bo'lamiz. Bu fikrimiz tibbiyot fani va uning har sohalariga ham tegishli. Dunyo miqyosida tibbiyotning rivojlanmagan tarmoqlari bo'lmasa kerak. Bunga isbot, bu sohada faoliyat olib borayotgan olimlar tomonidan fanga tegishli ilmiy izlanishlar olib borilishi, kashfiyotlarning zamon bilan hamnafaslikda uyg'unlashuvidir.

Tilshunoslarga ma'lumki, "nano-" old qo'shimcha (приставкаси)si bir qator sohalarda qo'llaniladi, lekin mustaqil ravishda biron-bir ma'noni anglatmasa-da, ma'lum bir predmetning hajm kattaligini bildiradi. Nanotexnologiya bu ilmiy va sanoat yo'nalishi bo'lib, uning asosiy vazifasiga 1 dan 100 nanometr hajmgacha bo'lgan obyektlarni o'rganish kiradi. Nanotexnologiyalarning asl maqsadi – atom-molekular yig'indilaridan ma'lum bir hajmdagi materiallarni yaratishdir. Dunyo bo'ylab nanotexnologiyalar sohasida quyidagi yo'nalishlarda tadqiqot va tekshiruvlar olib borish kuzatilmoqda: *makromolekula va biosistemalar modellashtirilishi/моделирование макромолекул и биосистем, hujayra muhandisligi/клеточная инженерия, sanitar-gigiyenik xomashyolarni yaratish/создание материалов санитарно-гигиенического назначения, biosensorlar/биосенсоры, biotexnologiyalar/биотехнологии, biyokimyoviy muhandislik/Bio-Chemical Engineering* (ing.) *биохимическая инженерия, sun'iy organlar yaratilishi/создание искусственных органов, smatr-xomashyolar/смарт-материалы* va b.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bir qator mutaxassislarning ta'kidlashicha, nanotexnologiyalar asosi Nobel mukofoti laureati R.Feynman tomonidan 1959-yil Amerikaning fizik olimlari jamiyati tashabbusi bilan tashkil etilgan anjumanda ommaga ilmiy ma'ruza ko'rinishida taqdim etilgan [2]. Keyinchalik, 1974-yil "nanotexnologiya" termini yapon olimi, professor Nario Taniguchi tomonidan kimyoviy